ISSN 2181-7839

# XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

# PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2021**

**2-son**
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

# MUNDARIJA

## TAHRIRIYAT


| | | |
|---|---|---|
| | 4 | Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir |


## TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI


| | | |
|---|---|---|
| **Sh. Mardonov, O. Jabborova** | 6 | Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari |
| **A. Abdullayev** | 9 | Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi |
| **D. Maxmudova** | 12 | Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar |
| **M. Musurmonova** | 16 | Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati |
| **R. Musurmanov, M. Musurmonova** | 20 | Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida |
| **F. Ochilov** | 23 | Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati |
| **B. Axmadaliyev** | 27 | Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati |
| **G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova** | 31 | Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli |
| **U. Shermatova** | 35 | Millat ruhini saqlash yo'lida |
| **F. Atabekov** | 39 | Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'rni |
| **O. Jabborova** | 43 | Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari |
| **M. Achilova** | 46 | Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli |
| **D. Po'latova** | 50 | Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari |
| **Z. Umarova** | 54 | Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish |


## TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI


| | | |
|---|---|---|
| **M. Abdullayeva** | 57 | Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi |
| **G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov** | 61 | Uchinchi tartibli tenglamalar |
| **X. Gulyamova** | 65 | Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi |
| **R. Nosirova** | 69 | Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash |


## ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI


| | | |
|---|---|---|
| **D. Mutalova** | 73 | Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida |
| **L. Boliyeva** | 76 | Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari |

| | | |
|---|---|---|
| **X. Gulyamova, U. Shermatova** | **79** | Ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarni xalqaro "pirls" nazoratiga tayyorlash |
| **A. Karimjonov, O. Jabborova** | **83** | Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida "tarbiya" fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi |
| **Z. Shanasirova** | **86** | Bolalarni maktabga tayyorlashda multimedia vositalaridan foydalanish afzalliklari |

## MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

| | | |
|---|---|---|
| **R. Nosirova, N. Rustambekova** | **89** | O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga joriy etish texnologiyalari |

## JISMONIY TARBIYA VA SPORT

| | | |
|---|---|---|
| **E. Soatov** | **93** | Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda ularning psixologik holatini o'rganish |
| **F. Abdullayev B. Abdullayeva** | **97** | Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida jismoniy mashqlarning o'rni |
| **A. Jo'raboyev** | **101** | Jismoniy tarbiya va sportning bola tafakkuriga ta'siri |
| **E. Hurramov** | **104** | Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga umumiy tasnif |

## MAKTABGACHA TA'LIM

| | | |
|---|---|---|
| **N. Maripova** | **107** | Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga noan'anaviy applikatsiya yasash usullarini o'rgatish |
| **A. Sanakulova** | **111** | Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim takliflar |
| **Z. Teshabayeva** | **114** | Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish o'yin faoliyati shakllarini tashkil etish |
| **L. Narimbayeva** | **117** | Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida teatrning roli |
| **N. Urinova, A. Abdullayev** | **121** | Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati |
| **Z. Nasirova** | **124** | Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda tilning fonetik, leksik va grammatik aspektlari |
| **S. Xolmatova** | **128** | Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tafakkurini shakllantirish omillari |

## ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

| | | |
|---|---|---|
| **Z. Narimbetova** | **131** | Matematika darslarida o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni |

## ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

| | | |
|---|---|---|
| **Ш. Мардонов, У. Закирова** | **134** | Об основных понятиях педагогических ценностей |
| **Ю. Кушназарова** | **138** | Теоретические исследования в математике |

## ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ

| | | |
|---|---|---|
| **Р. Гимазутдинов** | **141** | Знания по физической культуре – основа физкультурного образования дошкольников |

**Ra'no NOSIROVA,**
Chirchiq davlat pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi
**Nigora RUSTAMBEKOVA,**
Yashnabod tumani 454-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI AMALIYOTGA JORIY ETISH TEXNOLOGIYALARI

**Annotatsiya**

Maqolada O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga joriy etish mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xususida fikr bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Maktabgacha ta'lim tizimi, tashkilot, yosh avlod, ma'naviy salohiyat, maktabga tayyorlash, takomillashtirish.

В статье описывается реализация Концепции развитие дошкольного оброзавание В Республике Узбекистан до 2030 года, проводимые в стране реформы по далнейшему совершенствованию и развитию системы дошкольного образования.

**Ключевые слова.** Система дошкольного образования, учреждение, подрастающее поколение, умственное, подготовка к школе, совершенствование.

The article describes the implementation of the Concept for the development of pre-school education in the Republic of Uzbekistan until 2030, the reforms carried out in the country to further improve and develop the preschool education system.

**Key words.** Preschool education, organization, young generation, spiritual potential, school preparation, improvement.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ta'lim jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatini shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish, barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, uning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmoqlarini kengaytirish, ularni zamonaviy pedagog tarbiyachilarning yangi avlodi bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sifatini yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama jismoniy, intellektual, ma'naviy axloqiy, estetik rivojlanishi uchun imkon beradigan shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2019-yil 8-mayda “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish кonsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori qabul qilindi. Qarorni qabul qilishdan ko‘zlangan maqsad maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarni sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabchaga ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirishga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ni va uni amalga oshirishga qaratilgan “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqlashdan iborat, etib belgilangan.

Ushbu qarorning maqsadi, mazmun mohiyati, uning yo‘nalishlarda belgilangan asosiy vazifasi maktabgacha yoshdagi bolalarning manfaatlarini himoya qilishga, bolaning barcha huquq va erkinliklarini ta’minlash orqali bola shaxsini yaxlit, maqsadga muvofiq shakllantirishga qaratilgandir. Buning uchun esa quyidagi vazifalarni bajarishga ustuvorlik berilgan:

1. Maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish.

2. Bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlatning xususiy sherikchiligini rivojlantirish.

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning sog‘lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishni ta’minlash kabi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlar maktabgacha yoshdagi bolalarning huquqiy manfaatlarini, bolalarning hayoti xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, ushbu qarorda bolaning noyobligi, uning takrorlanmas yosh imkoniyatlari xususiyatlarini inobatga olgan holda shaxs sifatida kamol topishga imkon beruvchi:

– maktabacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;

– maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish;

– maktabgacha ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish kabi yo‘nalishlar samaradorligini oshirishning nazarda tutilganligi – ushbu qarorning maktabgacha ta’lim tizimidagi mavjud muammolar yechimiga qaratilganligini ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, ular qatorida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

– maktabgacha yoshdagi bolalarning to‘liq qamrab olinishini ta’minlash uchun maktabgacha ta’lim muassasalari sonining yetarli emasligi;

– qishloq joylarda maktabgacha ta’limning past darajada rivojlanganligi;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik holati lozim darajada emasligi;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi;

– maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv kadrlarining tanqisligi va ular malakasining pastligi;

– ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta’limning ijobiy jihatlari va foydasi haqida yetarlicha ma’lumotga ega emasligi;

– zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va ko‘rgazmali qurollarning yetishmasligi;

– alohida ehtiyojli bolalar uchun mavjud maktabgacha ta’lim tashkilotlarining texnik jihozlanishi va uslubiy ta’minoti darajasining pastligi;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va tibbiyot xodimlarining malakasi zamon talablariga to‘liq javob bermasligi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tizimini moliyalashtirishning hozirgi hajmi, tug‘ilishning o‘sishi dinamikasi saqlanib qolayotgan bir paytda, maktabgacha yoshdagi bolalarning qamrovini mavjud darajada saqlab turishni ta’minlab beradi, ammo uning o‘sishiga yordam bermaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘larining cheklanganligini e’tiborga olib, nodavlat sektor maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni o‘sishining harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lishi, davlat-xususiy sherikchiligi esa xususiy tadbirkorlik subyektlarini maktabgacha ta’lim tizimiga jalb etishning asosiy mexanizmiga aylanishi lozim.

Maktabgacha ta’limning hammabopligini, shu jumladan, respublikaning olis tumanlarida hamda maktabgacha ta’limning standart shakllarini kengaytirish qiyin bo‘lgan joylarda ta’minlash yangi muqobil shakllarni joriy etish hisobiga ham amalga oshirilishi lozim.

Bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishni ta’minlash bo‘yicha maqsadli iko‘rsatkichlarga erishish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

1. O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirish davlat dasturlari doirasida va boshqa manbalardan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan yangi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish va mavjudlarini rekonstruktsiya qilish.

2. Maktabgacha ta’lim sohasida qulay investitsiya muhitini yaratish, xususiy sektorni maktabgacha ta’lim tashkilotlarining quvvatlarini oshirishga yanada rag‘batlantirish va manfaatdorligini oshirish.

3. Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sherikchiligini, jumladan uning quyidagi shakllarini yanada rivojlantirish.

4. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini xususiy sherikka ishonchli boshqaruvga berish.

5. Kontsessiya asosida qurish, rekonstruktsiya qilish va jihozlash uchun yer uchastkasi yoki bino ajratish.

6. Hamma joyda bolalarni umumiy boshlang‘ich ta’limga bepul majburiy bir yillik tayyorlashning yagona tizimini joriy etish.

7. Maktabgacha ta’limning moslashuvchan ish jadvali hamda rivojlantiruvchi, tuzatuvchi xizmatlar va tadbirlarning keng ko‘lamini o‘z ichiga olgan quyidagi muqobil shakllarini joriy etish va rivojlantirish.

8. Yengil qurilish konstruktsiyalari va zamonaviy energiya samarador materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda, shinamlik va ekologik xavfsizlik talablariga muvofiq quriladigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yangi binolar loyihalarini ishlab chiqish (shu jumladan rivojlanishida jismoniy va ruhiy buzilishlari bo‘lgan bolalar uchun to‘siqsiz muhit elementlarini hisobga olgan holda).

9. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish va samarali tashkil qilish zaruratini hisobga olgan holda, qurilayotgan turar joy komplekslari va boshqa obyektlarni kerakli ijtimoiy infratuzilma bilan ta’minlash.

10. Respublikaning barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ichimlik suvi, isitish tarmog‘i, elektrenergiyasi va tabiiy gaz bilan, shu jumladan, zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish yo‘li bilan bosqichma-bosqich ta’minlash.

11. Ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning variativligi hisobiga rivojlanishida jismoniy yoki

ruhiy buzilishlari bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko‘lamini oshirish.

12. maktabgacha ta’limning bola shaxsini shakllantirishdagi roli va muhimligi haqida tushuntirish tadbirlarini olib borish, ushbu faoliyatga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik va ota-onalarni faol jalb qilish.

Maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdir.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari o‘zining dolzarbligi, ya’ni sohadagi muammolarning yechimiga qaratilganligi, uni amalga oshirishda aniq chora-tadbirlar belgilanganligi, belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaffoflikni ta’minlashga ustuvorlik berilganligi, maktabgacha ta’lim tizimiga qamrovni kengaytirishning turli shakllarini qo‘llab-quvvatlanilayotganligi, belgilangan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida, sifatli va to‘laqonli boshqarish bo‘yicha vakolatli organlar faoliyatini baholash indikatorlari asosida olib borilishi konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijaga erishishimizga asos bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli Qarori.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi RQ-4312-sonli Qarori.*

*3.O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo‘yilgan Davlat talablari. –T., 2018.*